

O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGI TAHLILI

ILMIY-TAHLILIY JURNAL
2025-YIL 3-SON

ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2025 ГОД № 3

UZBEKISTAN LAW REVIEW

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2025 ISSUE 3

VOLUME 2 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.2.3.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.



MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“O‘zbekiston qonunchiligi tahlili” ilmiy-tahliliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2014-yil 21-iyulda 02-0074-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

E. Mustafayev, Y. Yarmolik,
Y. Mahmudov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova, E. Sharipov

Musahhih:

M. Tursunov

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: lawreview.uz

E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Nashriyot litsenziyasi

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 2025-yil 26-sentabrda bosmaxonaga topshirildi.

Qog‘oz bichimi: A4.

Shartli bosma tabog‘i: 14.

Adadi: 100. Buyurtma: № 175.

Bosmaxona litsenziyasi

29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili:

100047. Toshkent shahri,

Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

TAHRIR HAY'ATI

BOSH MUHARRIR

S. Gulyamov – TDYU Kiber huquq kafedrasi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

I. Rustambekov – O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir o‘rinbosari

Sh. Xo‘jayev – TDYU Intelktual mulk huquqi kafedrasi mudiri, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori – mas‘ul muharrir

O. Oqyulov – TDYU Fuqarolik huquqi kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

I. Bekov – TDYU Konstitutsiyaviy huquq kafedrasi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

B. Musayev – TDYU Xalqaro xususiy huquq fakulteti dekani, yuridik fanlar doktori, professor

Sh. Saydullayev – TDYU Ommaviy huquq fakulteti dekani, yuridik fanlar nomzodi, professor

O. Mahkamov – TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasi dotsenti v.b., yuridik fanlar doktori

D. Habibullayev – TDYU Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi kafedrasi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

B. Samarxodjayev – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professori, yuridik fanlar doktori

S. Bozorov – TDYU O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofis) boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor

Marc Bungenberg – Saarlend universiteti Yevropa instituti direktori, yuridik fanlar doktori

Samet Tatar – Turkiyaning Anqara Yildirim Boyazid universiteti professori, yuridik fanlar doktori

Alper Ener – Turkiyaning Anqara Haci Bayram universiteti dotsenti, Energetika nizolari arbitraj markazi bosh-kotibi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori

Jamsheed Peeroo – Sarbonna Universiteti professori, Stone 36 yuridik firmasi advokati, yuridik fanlar doktori

O. Narziyev – TDYU Xalqaro xususiy huquq kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

O. Xazratqulov – TDYU Xalqaro xususiy huquq kafedrasi mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

V. Ergashev – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti direktor o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

D. Suyunova – TDYU Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

Sh.Joldasova – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-аналитический журнал «Обзор законодательства Узбекистана» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 21 июля 2014 года с удостоверением № 02-0074.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:

Е. Ярмолик, Й. Махмудов,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Ф. Мухаммадиева, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова, Э. Шарипов

Корректор:

М. Турсунов

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: lawreview.uz

E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Издательская лицензия

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
26.09.2025.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 14. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 175.

Лицензия типографии

от 29.11.2023. № 174626

Отпечатано в типографии
Ташкентского государственного
юридического университета.
100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

С. Гулямов – доктор юридических наук, профессор, заведующий кафедрой киберправа Ташкентского государственного юридического университета – главный редактор

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ

И. Рустамбеков – доктор юридических наук, профессор, проректор по учебной работе Ташкентского государственного юридического университета – заместитель главного редактора

Ш. Хужаев – доктор философии (PhD) по юридическим наукам, заведующий кафедрой права интеллектуальной собственности Ташкентского государственного юридического университета – ответственный редактор

О. Окюлов – доктор юридических наук, профессор кафедры гражданского права Ташкентского государственного юридического университета

И. Беков – доктор юридических наук, профессор, заведующий кафедрой конституционного права Ташкентского государственного юридического университета

Б. Мусаев – доктор юридических наук, профессор, декан факультета международного частного права Ташкентского государственного юридического университета

Ш. Сайдуллаев – кандидат юридических наук, профессор, декан факультета публичного права Ташкентского государственного юридического университета

О. Махкамов – доктор юридических наук, и. о. доцента кафедры уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета

Д. Хабибуллаев – доктор юридических наук, профессор, заведующий кафедрой гражданского процессуального и экономического процессуального права Ташкентского государственного юридического университета

Б. Самарходжаев – доктор юридических наук, профессор Университета мировой экономики и дипломатии

С. Бозоров – доктор юридических наук, профессор, начальник управления учебно-методической работы (Регистратор-офис) Ташкентского государственного юридического университета

М. Бунгенберг – доктор права, директор Европейского института Саарского университета (Германия)

С. Татар – доктор права, профессор Анкарского университета Йылдырым Беazit (Турция)

А. Энер – доктор права, доцент Анкарского университета Хаджи Байрам, заместитель генерального секретаря Арбитражного центра по энергетическим спорам (Турция)

Дж. Пезру – доктор права, профессор Сорбоннского университета, адвокат юридической фирмы Stone 36 (Франция)

О. Нарзиев – доктор юридических наук, профессор кафедры международного частного права Ташкентского государственного юридического университета

О. Хазраткулов – кандидат юридических наук, профессор, заведующий кафедрой международного частного права Ташкентского государственного юридического университета

В. Эргашев – доктор юридических наук, профессор, заместитель директора Института законодательства и правовой политики при Президенте Республики Узбекистан

Д. Суюнова – доктор юридических наук, профессор кафедры уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета

Ш. Жолдасова – доктор философии (PhD) по юридическим наукам, главный научный сотрудник Института проблем законодательства и парламентских исследований при Олий Мажлисе Республики Узбекистан

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

"Uzbekistan law review" legal scientific and analytical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on July 21, 2014, with certificate number 02-0074.

The journal is included in the list of journals of the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,
E. Mustafaev, K. Abduvalieva,
F. Mukhammadieva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova, E. Sharipov

Proofreader:

M. Tursunov

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: lawreview.uz

E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Publishing license

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 26.09.2025.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 14.

Units: 100. Order: № 175.

Printing house license

№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD
EDITOR-IN-CHIEF

S. Gulyamov – Head of the Department of Cyberlaw of TSUL, Doctor of Law, Professor
- Editor-in-Chief

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

I. Rustambekov – Deputy Rector for Academic Affairs, Doctor of Law, Professor -
Deputy Editor-in-Chief

Sh. Xujayev – Head of the Department of Intellectual Property Law of TSUL, Doctor
of Philosophy (PhD) in Law - Executive Editor

O. Oqyulov – Professor of the Department of Civil Law of TSUL, Doctor of Law

I. Bekov – Head of the Department of Constitutional Law of TSUL, Doctor of Law,
Professor

B. Musaev – Dean of the Faculty of Private International Law of TSUL, Doctor of
Law, Professor

Sh. Saydullaev – Dean of the Faculty of Public Law of TSUL, Candidate of Legal
Sciences, Professor

O. Mahkamov – Acting Associate Professor of the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-Corruption of TSUL, Doctor of Law

D. Habibullaev – Head of the Department of Civil Procedural and Economic
Procedural Law of TSUL, Doctor of Law, Professor

B. Samarkhodjaev – Professor of the University of World Economy and Diplomacy,
Doctor of Law

S. Bozorov – Head of the Educational and Methodological Department (Registration
Office) of TSUL, Doctor of Law, Professor

Marc Bungenberg – Saarland universiteti Yevropa instituti direktori, yuridik
fanlar doktori Director of the European Institute of Saarland University, Doctor of Law

Samet Tatar – Professor of Ankara Yıldırım Bayezid University, Turkey, Doctor of
Law

Alper Ener – Associate Professor of Ankara Haci Bayram University, Turkey, Deputy
Secretary General of the Center for Arbitration of Energy Disputes, Doctor of Law

Jamsheed Peeroo – Professor of the University of Sarbonne, lawyer of the law firm
Stone 36, Doctor of Law

O. Narziev – Professor of the Department of Private International Law of TSUL,
Doctor of Law

O. Khazratkulov – Head of the Department of Private International Law of TSUL,
Candidate of Legal Sciences, Professor

V. Ergashev – Deputy Director of the Institute of Legislation and Legal Policy under
the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

D. Suyunova – Professor of the Department of Criminal Procedure Law of TSUL,
Doctor of Law

Sh. Joldasova – Chief Research Fellow of the Institute of Legislation Problems and
Parliamentary Research under the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of
Philosophy (PhD) in Law

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 8 **NAZAROV SHAVKAT NAZAROVICH**
Fuqarolik jamiyati va davlat: konstitutsiyaviy-huquqiy hamkorlik asoslari
- 18 **NARIMANOV BEKZOD ABDUVALIYEVICH**
Nodavlat notijorat tashkilotlari ramzlari bilan bog'liq ma'muriy tartib-taomillarni takomillashtirish

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 25 **ABDUVALIYEV BAHODIR ABDULXAYEVICH**
Aqlii shaharlar ekotizimida subyektlar tarkibi va shartnoma munosabatlarining o'ziga xosligi:
O'zbekiston Respublikasi misolida huquqiy tahlil

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 35 **BARLIBAYEVA DILNOZA ABDUKAXAROVNA**
Sudgacha adolat va huquqiy himoya: O'zbekistonda fuqarolar huquqlarini himoya qilishning yangi mexanizmi

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOIIY TA'MINOT HUQUQI

- 46 **RAXIMOVA KAMOLA XOSHIMJANOVNA**
"Work-life balance" konsepsiyasining nazariy asoslari va O'zbekiston sharoitida joriy etish mexanizmlari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 55 **BAYTUROVA AIDA NABIYEVNA**
O'zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish va ular faoliyatining huquqiy jihatlar
- 65 **OTAUBAYEVA AYGUL BAXRAMOVNA**
Ekologiya sohasidagi jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklarning chegarasini aniqlash: Qozog'iston va O'zbekiston qonunchiligining qiyosiy-huquqiy tahlili
- 74 **KALDARBEOV ASILJON OSPANOVICH**
Qozog'iston va O'zbekistonda o'rmon fondiga mulk huquqi bilan bog'liq dolzarb muammolar

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 84 **OCHILOV SAMARIDDIN KAMOLIDDINOVICH**
Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining shakllanishiga oid ilmiy-nazariy va huquqiy qarashlar
- 98 **NURMANOV XOLBEK RAHMATILLA O'G'LI**
Kiberjinoyatchilik o'sishi ortidan kiberjinoyatchi portretiga nazar

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 109 **MIRZAYEVA MOHINA SROJIDDINOVA**
"Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri loyihasida shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kafolatlarining huquqiy tahlili

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

- 8 **НАЗАРОВ ШАВКАТ НАЗАРОВИЧ**
Гражданское общество и государство: основы конституционно-правового взаимодействия
- 18 **НАРИМАНОВ БЕКЗОД АБДУВАЛИЕВИЧ**
Совершенствование административных процедур, связанных с символикой негосударственных некоммерческих организаций

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

- 25 **АБДУВАЛИЕВ БАХОДИР АБДУЛХАЕВИЧ**
Специфика субъектного состава и договорных отношений в экосистеме умных городов:
правовой анализ на примере Республики Узбекистан

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

- 35 **БАРЛИБАЕВА ДИЛНОЗА АБДУКАХАРОВНА**
Досудебная справедливость и правовой щит: новый механизм защиты прав граждан в Узбекистане

12.00.05 – ТРУДОВОЕ ПРАВО. ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

- 46 **РАХИМОВА КАМОЛА ХОШИМЖАНОВНА**
Теоретические основы концепции work-life balance и механизмы её внедрения в условиях Узбекистана

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

- 55 **БАЙТУРОВА АИДА НАБИЕВНА**
Правовые аспекты создания и функционирования охраняемых природных территорий в Узбекистане
- 65 **ОТАУБАЕВА АЙГУЛЬ БАХРАМОВНА**
Разграничение преступлений и административных правонарушений в сфере экологии:
сравнительно-правовой анализ законодательства Казахстана и Узбекистана
- 74 **КАЛДАРБЕКОВ АСЫЛЖАН ОСПАНОВИЧ**
Актуальные проблемы права собственности на лесной фонд в Казахстане и Узбекистане

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

- 84 **ОЧИЛОВ САМАРИДДИН КАМОЛИДДИНОВИЧ**
Научно-теоретические и правовые взгляды на формирование института условно-досрочного освобождения от наказания
- 98 **НУРМАНОВ ХОЛБЕК РАХМАТИЛЛА УГЛИ**
Профиль киберпреступника сквозь призму роста киберпреступности

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

- 109 **МИРЗАЕВА МОХИНА СРОЖИДДИНОВНА**
Правовой анализ гарантий прозрачности и антикоррупционных мер в проекте закона «Об автомобильных дорогах» в новой редакции

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

- 8 **NAZAROV SHAVKAT NAZAROVICH**
Civil society and the state: foundations of constitutional and legal cooperation
- 18 **NARIMANOV BEKZOD ABDUVALIEVICH**
Improvement of administrative procedures related to the symbols of non-governmental non-profit organizations

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 25 **ABDUVALIEV BAHODIR ABDULKHAYEVICH**
Specifics of subject composition and contractual relations in the ecosystem of smart cities: legal analysis on the example of the Republic of Uzbekistan

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 35 **BARLIBAEVA DILNOZA ABDUKAKHAROVNA**
Pre-trial justice and legal shield: a new mechanism for protecting the rights of citizens in Uzbekistan

12.00.05 – LABOR LAW. SOCIAL SECURITY LAW

- 46 **RAKHIMOVA KAMOLA KHOSHIMJANOVNA**
Theoretical foundations of “work-life balance” concept and implementation mechanisms in Uzbekistan context

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 55 **BAYTUROVA AIDA NABIYEVNA**
Legal aspects of the establishment and functioning of protected natural areas in Uzbekistan
- 65 **OTABAYEVA AIGUL BAKHRAMOVNA**
Distinction between environmental crimes and administrative offenses: a comparative legal analysis of the legislation of Kazakhstan and Uzbekistan
- 74 **KALDARBEOV ASILJAN OSPANOVICH**
Current issues of ownership of forest fund in Kazakhstan and Uzbekistan

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

- 84 **OCHILOV SAMARIDDIN KAMOLIDDINOVICH**
The scientific-theoretical and legal views on the formation of the institution of parole
- 98 **NURMANOV KHOLBEK RAHMATILLA UGLI**
A look at the cybercriminal profile in the event of the growth of cybercrime

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEMS

- 109 **MIRZAEVA MOHINA SROJIDDINOVA**
Legal analysis of transparency and anti-corruption safeguards in the new edition of the law “On Automobile Roads”

Kelib tushgan / Получено / Received: 18.07.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 15.09.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 26.09.2025

DOI: 10.51788/tsul.uzlawrev.2.3./SZNN9820

UDC: 343.352(045)(575.1)

“AVTOMOBIL YO‘LLARI TO‘G‘RISIDA”GI QONUNNING YANGI TAHRIRI LOYIHASIDA SHAFFOFLIK VA KORRUPSIYAGA QARSHI KAFOLATLARNING HUQUQIY TAHLILI

Mirzayeva Mohina Srojiddinova,

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0009-4983-0770

e-mail: mohinamirzayeva1994@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi qonuni yangi tahriri loyihasida belgilangan shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kafolatlar, ilk bor alohida moddalarda mustahkamlangan qonuniylik, ochiqlik va oshkoralik prinsiplari huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish jarayonlariga ochiq tenderlar orqali xususiy sektorni autsorsing asosida jalb etishning afzalliklari yoritilgan. Tadqiqotda qonun normalarida korrupsiya xavflarini kamaytirishga qaratilgan umumiy qoidalar mavjud bo‘lsa-da, ularning amaliy mexanizmlari yetarli darajada aniq belgilanmagani ko‘rsatib o‘tilgan. Xususan, elektron tender tizimlari, ochiq ma‘lumotlarni Davlat shartnomalari haqidagi ochiq ma‘lumotlar standarti (OCDS)da e‘lon qilish, mustaqil moliyaviy va texnik audit, blokcheyn texnologiyasi asosida xarajatlar reyestri, xabar qiluvchilarni huquqiy himoya qilish va “halollik pakti” – Integrity Pact shartnomalarini joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti va Transparency International tavsiyalari hamda Ukraina (“ProZorro”), Chili (“ChileCompra”), Hindiston, Kolumbiya va Polsha tajribalari misolida xalqaro standartlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari yo‘l-transport infratuzilmasi loyihalarini amalga oshirishda shaffoflik va hisobdorlikni ta‘minlash, korrupsiya xavflarini kamaytirish hamda jamoatchilik ishonchini mustahkamlash uchun huquqiy va institutsional takliflar ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: avtomobil yo‘llari, korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflik, hisobdorlik, elektron tender, Davlat shartnomalari haqidagi ochiq ma‘lumotlar standarti (OCDS), mustaqil audit, halollik pakti (Integrity Pact), xabar qiluvchilar himoyasi, jamoatchilik nazorati

ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ГАРАНТИЙ ПРОЗРАЧНОСТИ И АНТИКОРРУПЦИОННЫХ МЕР В ПРОЕКТЕ ЗАКОНА «ОБ АВТОМОБИЛЬНЫХ ДОРОГАХ» В НОВОЙ РЕДАКЦИИ

Мирзаева Мохина Срождидиновна,

самостоятельный соискатель
Правоохранительной академии
Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье проведён правовой анализ гарантий прозрачности и антикоррупционных механизмов, закреплённых в законопроекте «Об автомобильных дорогах» в новой редакции. Особое внимание уделено принципам законности, открытости и гласности, впервые отражёнными в отдельных статьях законопроекта. Освещены преимущества привлечения частного сектора на основе аутсорсинга к процессам эксплуатации автомобильных дорог общего пользования через открытые тендерные процедуры. В исследовании отмечено, что, несмотря на наличие в нормах принимаемого закона общих положений, направленных на снижение коррупционных рисков, практические механизмы их реализации определены недостаточно чётко. В частности, обоснована необходимость внедрения электронных тендерных систем, публикации открытых данных в формате Стандарта открытых данных о государственных закупках (OCDS), независимого финансового и технического аудита, ведения реестра расходов на основе технологии блокчейн, обеспечения правовой защиты информаторов и применения контрактов в соответствии с «пактом добросовестности» – Integrity Pact. Проведён сравнительный анализ международных стандартов и рекомендаций Всемирного банка, Организации экономического сотрудничества и развития, Transparency International, а также опыта таких стран, как Украина (ProZorro), Чили (ChileCompra), Индия, Колумбия и Польша. Результаты исследования показывают необходимость разработки правовых и институциональных предложений, направленных на обеспечение прозрачности и подотчётности при реализации проектов дорожной инфраструктуры, снижение коррупционных рисков и укрепление общественного доверия.

Ключевые слова: автомобильные дороги, борьба с коррупцией, прозрачность, подотчётность, электронный тендер, Стандарт открытых данных о государственных закупках (OCDS), независимый аудит, пакт добросовестности (Integrity Pact), защита информаторов, общественный контроль

LEGAL ANALYSIS OF TRANSPARENCY AND ANTI-CORRUPTION SAFEGUARDS IN THE NEW EDITION OF THE LAW “ON AUTOMOBILE ROADS”

Mirzaeva Mohina Srojiddinova,
Independent researcher at the
Academy of Law Enforcement
of the Republic of Uzbekistan

Abstract. In this article, the principles of legality, openness, and transparency, enshrined in separate articles, as well as guarantees of transparency and anti-corruption defined in the draft of the new edition of the Law of the Republic of Uzbekistan “On Automobile Roads,” are analyzed from a legal perspective for the first time. The advantages of attracting the private sector through outsourcing through open tenders to the processes of operating public roads are also highlighted. The study shows that, although the norms of the law contain general provisions aimed at reducing corruption risks, their practical mechanisms are not sufficiently clearly defined. In particular, the need to introduce electronic tender systems, the publication of open data in the Open Data Standard on State Contracts (OCDS), independent financial and technical audits, a cost register based on blockchain technology, legal protection of informants, and the Integrity Pact is substantiated. International standards were analyzed using the recommendations of the World Bank, the Organization for Economic Cooperation and Development, and Transparency International, as well as the experience of Ukraine (“ProZorro”), Chile (“ChileCompra”), India, Colombia, and Poland. The research results indicate the need to develop legal and institutional proposals to ensure transparency and accountability in the implementation of road transport infrastructure projects, reduce corruption risks, and strengthen public trust.

Keywords: automobile roads, anti-corruption, transparency, accountability, electronic tender, Open Data Standard on State Contracts (OCDS), independent audit, Integrity Pact, whistleblower protection, public monitoring

Kirish

Avtomobil yo'llari – milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularni loyihalash, qurish va xizmat ko'rsatish jarayonlari katta mablag'lar, ko'p sonli mansabdor shaxslar hamda xususiy va davlat subyektlarining ishtirokini talab etadi. Shuning uchun yo'l infratuzilmasi loyihalari korrupsiya uchun o'ziga xos "korrupsiyaga moyil" sohalardan biri sanaladi: turli bosqichlarda – loyiha tanlovi, xaridlar, nazorat va qabul jarayonlarida xarajatlarni oshirish, sifatdan voz kechish, mansabdor shaxslar ta'siri bilan tender natijalarini o'zgartirish kabi xatarlar paydo bo'ladi.

O'zbekiston kontekstida korrupsiyaga oid qonuniy va amaliy choralar so'nggi yillarda kuchayganiga qaramay, korrupsiya ko'rsatkichlari va unga bog'liq jinoyatlar soni hanuz muhim muammo bo'lib qolmoqda. Masalan, 2024-yil davomida turli hududlarda, shu jumladan, ma'muriy darajadagi shaxslar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid qator jinoyatlar ro'y bergani va umumiy hisobda bir necha yuzta korrupsiyaga oid holatlar qayd etilgani xabar qilindi; bu esa sohada shaffoflik va qat'iy monitoringni kuchaytirish zarurligini yaqqol ko'rsatadi [1].

Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va *Transparency International* kabi tashkilotlar infratuzilma loyihalaridagi korrupsiya xatarini kamaytirish uchun quyidagilarni tavsiya etadi: elektron tender va ochiq raqobat; mustaqil tadqiqot va hisobdorlik (audit); loyiha ma'lumotlarining ommaviy ochiq platformalarda shakllantirilishi; jamoatchilik va nodavlat tashkilotlarning nazorati; korrupsiya aralashgan operatsiyalar uchun qonunchilikda qat'iy sanksiyalar va zarar yetkazilishiga nisbatan tezkor tekshiruvlar. Bunday choralar xarajatlarning shaffofligini oshirishi va korrupsiyaning kirib kelish yo'llarini qisqartirishi bilan ahamiyatli.

2025-yilda O'zbekiston Respublikasining "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi Qonuni yangi tahriri jamoatchilik muhokamasiga qo'yilib, unda shaffoflikni ta'minlash va infratuzilma loyihalarini samarali boshqarishga doir qator yangi normalar kiritish imkoniyati paydo bo'ldi.

Yangilanadigan qonun doirasida avtomobil yo'llari sohasidagi korrupsiya xavflarini va ularning iqtisodiy illatlarini aniq statistik va manbali ma'lumotlar asosida tahlil qilish muhimdir. Yangi qonun loyihasidagi mavjud normalarni korrupsiyaga qarshi barcha asosiy mexanizmlar nuqtayi nazaridan baholash va qonunga kiritilishi maqbul bo'lgan konkret huquqiy normalar va amaliy instrumentlarni taklif qilish mazkur ishning asosiy vazifalaridan biridir.

Ushbu tadqiqotda qonunchilik tahlili, qiyosiy huquqshunoslik va xalqaro tajriba o'rganish usullari qo'llandi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi qonuni loyihasi va amaldagi qonun hujjatlari normalarini o'rganish orqali ochiqlik va shaffoflik masalalaridagi mavjud huquqiy kamchiliklar aniqlandi.

Asosiy qism

Avtomobil yo'llari to'g'risidagi qonunning yangi tahriri loyihasida ochiqlik va oshkoralik prinsiplari alohida belgilangan bo'lib, ular davlat boshqaruvi va yo'l infratuzilmasi sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishi sifatida qayd etilgan. Masalan, 5-moddada umumiy prinsiplar qatorida "ochiqlik va oshkoralik" tamoyillari nazarda tutilgan, 8-moddada esa tender savdolarini ochiq o'tkazish to'g'risidagi talab bayon etilgan. Bu holat, shubhasiz, qonunning shaffoflikni ta'minlashga qaratilganini ko'rsatadi.

Qonunning yangi tahririda ilk bor qonuniylik, ochiqlik va oshkoralik prinsiplari alohida moddalarda (6-modda, 8-modda) mustahkamlangani ilmiy va amaliy jihatdan muhim qadam

hisoblanadi. Chunki amaldagi avvalgi tahrirlarda mazkur prinsiplar alohida modda sifatida nazarda tutilmagan, bu esa huquqiy mexanizmlarning zaifligini ko'rsatardi. Shu bois mazkur prinsiplarni qonun darajasida mustahkamlash sohada shaffoflik, hisobdorlik va huquqiy kafolatlarni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avtomobil yo'llarini rejalashtirish, loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish va ekspluatatsiya qilish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga qat'iy rioya qilingan holda amalga oshirilishi lozim.

Xalqaro amaliyotda yo'l infratuzilmasini rejalashtirish va qurish jarayonlarida qonuniylik prinsipi nafaqat umumiy tarzda, balki aniq texnik, ekologik va xavfsizlik standartlari orqali huquqiy jihatdan mustahkamlanadi. Masalan, AQSh qonunchiligida 23 U.S.C. § 109-moddasida federal mablag'lar hisobiga quriladigan yo'llar uchun dizayni, xavfsizligi va salomatlik mezonlari qat'iy belgilangan [2]. Shuningdek, Hindistonda milliy yo'llar tenderlarida pudratchilarning moliyaviy va texnik salohiyatiga oid me'yorlar joriy etilgan bo'lib, ular bajarilmagan hollarda kelishuvlarni bekor qilish va kechikishlarning oldini olish choralari ko'rilgan [3]. Yevropa Ittifoqi qonunchiligida esa yo'l infratuzilmasi xavfsizlik inspeksiyalari, ekologik talablar va ma'lumotlarni ochiq shaklda yuritish kabi normalar qat'iy belgilangan [4].

Mazkur holatdan ko'rish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi Qonunida qonuniylik prinsipi umumiy huquqiy me'yor sifatida nazarda tutilgan bo'lsa-da, u xalqaro amaliyotdagi kabi detallashtirilgan standartlar va amaliy mexanizmlar bilan boyitilishi zarur.

Ochiqlik va oshkoralik prinsiplari haqida gapiradigan bo'lsak, avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va rekonstruksiya qilishda pudratchilarni aniqlash ochiq tender savdolarini o'tkazish yo'li bilan aniqlanishi lozim. Ochiqlik va oshkoralik (transparency) – davlat qarorlari, xarajatlar va jamoat resurslaridan foydalanish jarayonlari haqida jamoatchilikka ma'lumot berishni, faol monitoring imkoniyatlarini yaratishni nazarda tutadi.

Yevropa Ittifoqining ommaviy xaridlar bo'yicha Direktivalari (masalan, *Directive 2014/24/EU*) tender jarayonlarida shaffoflik, ochiqlik va teng imkoniyatlar tamoyillarini qo'llashni talab qiladi [5]. Bu Direktivalarda jamoat tender e'lonlari, kontrakt e'lonlari va shartnoma shartlari omma e'tiboriga taqdim qilinishi lozimligi belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, tenderdan keyingi ma'lumotlarni ochiq tarzda e'lon qilish (*post-contract transparency*) ham talab etiladi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilish ishlariga ochiq tender savdolarini o'tkazish orqali autsorsing asosida xususiy sektorni jalb etishga yo'l qo'yilishi mumkin. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilish ishlariga xususiy sektorni jalb etish, birinchi navbatda, *davlat budjeti xarajatlarini kamaytirish*, xizmatlarning *samaradorligi va sifatini oshirish*, hamda *raqobat muhitini kengaytirish* uchun muhim mexanizmdir.

Xususiy kompaniyalar tender savdolarida qatnashib, xizmatlar uchun raqobatbardosh narxlarni taklif qiladi. Bu davlat xarajatlarining optimallashtirilishiga olib keladi. Masalan, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, autsorsing asosida yo'l ekspluatatsiyasi joriy qilingan mamlakatlarda xarajatlar o'rtacha 15–20 foizga kamaygan [6]. Xususiy sektor xizmatlarni bozor tamoyillari asosida ko'rsatgani sababli ular texnologik yangiliklardan keng foydalanadi. Bu esa yo'l infratuzilmasining sifatli va tezkor ekspluatatsiyasini ta'minlaydi. Masalan, Chili va Argentina'da "*Performance-Based Contracts*" joriy etilgach, yo'l xizmatlari sifati yuqori darajaga ko'tarilgan.

Ochiq tender savdolari orqali autsorsing asosida xususiy sektorni yo'l ekspluatatsiyasiga jalb qilish O'zbekiston uchun samarali yechim hisoblanadi. Bu nafaqat davlat xarajatlarini kamaytiradi, balki xizmatlar sifatini oshiradi va korrupsiyaviy xavfni minimallashtiradi.

O'tkaziladigan tenderlar, avtomobil yo'llarida transport vositalari harakatini vaqtincha cheklash yoki taqiqlash, sohaga oid amalga oshirilayotgan islohotlar va qabul qilingan qonunchilik hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun erkin foydalanish maqsadida e'lon qilinishi lozim. Biroq mazkur normalar umumiy prinsipial ko'rinishda ifoda etilgan bo'lib, ularni amalda samarali tatbiq etish uchun zarur bo'lgan huquqiy mexanizmlar to'liq aniqlashtirilmagan. Jumladan, qonunda:

- barcha davlat buyurtmalari va yirik yo'l loyihalari uchun majburiy elektron tender (*e-procurement*) tizimidan foydalanish haqida qat'iy talab yo'q;
- tender natijalari va shartnoma ma'lumotlari *Davlat shartnomalari haqidagi ochiq ma'lumotlar standarti* formatida (OCDS – *Open Contracting Data Standard*) jamoatchilikka taqdim etilishi shartligi aniq belgilanmagan;
- loyiha ijrosini nazorat qilishda jamoatchilik monitoringi va mustaqil kuzatuv instituti uchun huquqiy asoslar nazarda tutilmagan.

Shu sababli "ochiqlik va oshkoralik" prinsipi nazariy darajadagi umumiy qoida sifatida qolib ketishi, amalda esa korrupsiya xavfini keskin kamaytirishda yetarli samara bermasligi mumkin.

Jahon banki hisobotida infratuzilma va yo'l qurilishi sohasida korrupsiya xarajatlarni sezilarli oshirishi ta'kidlangan [7]. Misol uchun, AQShning Florida shtatida shirkatlar til birlashtirganda narxlar 8 foizga, Janubiy Koreyada esa 15 foizga oshgan [8; 9]. Niderlandiya parlamenti ma'lumotiga ko'ra, yashirin kelishuvlar qurilish xarajatlarini 20 foizga ko'taradi [10], Konnor [11] esa o'rtacha 25 foiz ortiqcha narxni aniqlagan. Shu sababli elektron xarid platformalari korrupsiya xavfini kamaytirib, raqobatni oshiradi va tender jarayonlarini shaffof qiladi.

IHTTning "*Principles for Integrity in Public Procurement*" nomli hujjatida davlat xaridlarida ochiq ma'lumotlar va raqamli tender tizimini joriy etish korrupsiyaning oldini olishning asosiy usuli sifatida tavsiya etilgan [12]. Misol uchun, "2017-yilning birinchi yarmida Ukrainaning "ProZorro" portali orqali 410 mingdan ortiq lot bo'yicha xarid amalga oshirildi, ularning kutilgan qiymati 247 trln grivnadan oshdi. 80 mingdan ziyod korxona va xususiy tadbirkorlar ishtirok etdi. Raqobat hisobiga o'rtacha 5,5 foiz tejamkorlikka erishildi (kutilgan va haqiqiy narx o'rtasidagi farq)" [13].

A. Kovalchuk [14] tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda "ProZorro" elektron xarid tizimi joriy etilgandan keyin raqobat va narxlarga ta'sir ko'rsatgan-ko'rsatmagani tahlil qilingan.

"ChileCompra" tizimidagi asosiy shartnomalarida o'rtacha 248 ishtirokchi qatnashadi, ularning 70 foizi (taxminan 185 tasi) shartnoma tuzish huquqini oladi" [15]. Tender jarayonining ochiqligi va ishtirokchilarning ko'pligi davlat xaridlarida raqobat muhitini kuchaytiradi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday holat korrupsiya xavfini kamaytiradi, chunki teng imkoniyatlar ta'minlanganda manfaatdor guruhlar ta'siri cheklanadi va narxlar bozor mexanizmlari asosida shakllanadi. IHTT uni shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlagan muvaffaqiyatli islohot sifatida e'tirof etgan.


Yangi tahrirdagi qonun loyihasining yana bir jihati, uning 27-moddasida avtomobil yo'llarini moliyalashtirish jihatlari yoritilgan. Loyihada mablag'larni maqsadli yo'naltirish

ko'zda tutilgan bo'lsa-da, hisobdorlik va ommaviy audit bo'yicha aniq huquqiy talablar belgilanmagan. Bu esa mablag'lardan samarali va shaffof foydalanishni kafolatlamaydi. Xalqaro tajribada, xususan, Jahon banki va IHTT standartlarida yirik loyihalar uchun tashqi audit va ochiq hisobot berish majburiydir.

Bundan tashqari, loyihada nazorat funksiyalari asosan tegishli vazirliklar va Avtomobil yo'llari qo'mitasiga topshirilgan. Biroq bu holatda manfaatlar to'qnashuvi (*conflict of interest*) xavfi yuzaga kelishi mumkin. Ya'ni *bir vaqtning o'zida ham buyurtmachi, ham nazoratchi sifatida ishtirok etish* organlarning mustaqilligi va xolisligini ta'minlamaydi. Shuningdek, tender jarayonlarini kuzatish komissiyalarining huquqiy maqomi va mustaqilligi qonun matnida yetarlicha tartibga solinmagan.

Loyihada yo'l sohasida raqamlashtirish belgilangan bo'lsa-da, OCDS, API orqali ma'lumot berish va ochiq formatlar kabi texnik-huquqiy standartlar aniq ko'rsatilmagan. Bu esa shaffoflik va jamoatchilik monitoringini cheklaydi. Xalqaro tajribada tender natijalari, shartnoma qiymati va pudratchilar haqidagi ma'lumotlar API orqali ochiq taqdim etilib, ularni tadqiqotchilar va fuqarolik jamiyati erkin tahlil qila oladi.

Qonunda mahalliy hokimiyat vazifalari belgilangan bo'lsa-da, fuqarolik jamiyati institutlari ishtiroki, *Integrity Pact*, mustaqil kuzatuv kengashlari yoki ommaviy monitoring mexanizmlari nazarda tutilmagan. Shu bois jamoatchilik nazorati huquqiy jihatdan yetarli darajada mustahkamlanmagan. Yuqoridagilarga asosan qonun loyihasiga o'zgartirishlar taklif etiladi (rasm).



Rasm. O'zbekiston Respublikasining "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi qonuni yangi tahririga takliflar

Majburiy elektron tender va ochiq ma'lumot formati. Yuqoridagilarga asosan qonun loyihasiga majburiy elektron tender va ochiq ma'lumot formati to'g'risida aniq modda qo'shish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Lyra va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda "elektron tender tizimlari (*e-procurement*) tender jarayonlarini shaffof va kuzatib borish mumkin bo'lgan holatga keltirgani sababli korrupsiya uchun imkoniyatlarni sezilarli darajada kamaytirgan"i o'z tasdig'ini topgan [16].

Mustaqil (xorijiy/ixtiyoriy) moliyaviy audit va nazorat. Fikrimizcha, qonun loyihasiga mustaqil (xorijiy/ixtiyoriy) moliyaviy audit va nazorat to'g'risida alohida band kiritilishi lozim (Jadval).

Tender va shartnoma ijrosida “qizil bayroqlar” (*red flags*) tizimini qo'llash – ya'ni xarajatlarning ortib ketishi, ishlarni kechiktirish yoki shartnoma talablariga rioya etmaslik kabi holatlarni vaqtida aniqlash – korrupsiya xavfini bartaraf etishda samarali vosita hisoblanadi [17]. Yo'l loyihalari bo'yicha auditorlik hisobotlarida asosiy e'tibor xarajatlarning samaradorligi, budjetdan chetga chiqish holatlari va texnik standartlarga rioya etilishini tekshirishga qaratilgan [18].

“Mustaqil moliyaviy va texnik auditlar infratuzilma loyihalarida yo'qotishlarni kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Korrupsiya va samarasizlik sababli yo'qotishlar ko'p hollarda 10–30 foizga yetgan” (16, 25-b.).

Integrity Pact (integritet shartnomasi) va jamoatchilik kuzatuvi

Transparency International tomonidan turli mamlakatlarda amalga oshirilgan tajriba shuni ko'rsatadiki, halollik pakti (*Integrity Pact*) [19] usuli korrupsiya xavfini kamaytirishda samarali mexanizm hisoblanadi. Masalan, Hindiston, Kolumbiya va Polshada yirik infratuzilma tenderlarida *Integrity Pact* joriy etilganda tenderlarda qatnashuvchilar soni ortib, raqobat darajasi ko'tarilgan, shartnoma qiymatlarida sun'iy narx oshirish holatlari kamaygan, jamoatchilik monitorlari orqali shartnoma ijrosining shaffofligi va hisobdorligi ta'minlangan.

Majburiy deklaratsiyalar va manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish

IHTT tavsiyalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va davlat xizmatchilari uchun moliyaviy deklaratsiyalar tizimini joriy qilish korrupsiya xavfini kamaytirishning samarali vositasi sifatida qayd etilgan [20].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi 7- va 9-moddalarida davlat xizmatchilari uchun ochiq deklaratsiya tizimi va davlat xaridlarida shaffoflik mexanizmlarini joriy etish talablari belgilangan.

Blokcheyn va raqamlashtirilgan reyestrlar orqali xarajatlarni nazorat qilish

Yirik yo'l qurilishi va infratuzilma loyihalarida moliyaviy xarajatlarni va to'lovlarining shaffofligini ta'minlash maqsadida maxsus *reyestr (ma'lumotlar bazasi)* joriy etilishi lozim. Ushbu reyestrda barcha moliyaviy operatsiyalar (tranzaksiyalar) qayd etiladi va ma'lumotlarning bir qismi *blokcheyn texnologiyasi* asosida saqlanadi.

“Blokcheyn asosidagi reyestrlar ma'lumotlarni o'zgartirib bo'lmas holda saqlaydi. Bu esa ma'lumotlar manipulyatsiyasi xavfini kamaytiradi va infratuzilma loyihalarini boshqarishda ishonchni kuchaytiradi” [16, 33-b.].

Ahsan Vaqar va boshqalarning fikriga ko'ra, “Blokcheyn texnologiyasi ta'minot zanjiridagi barcha operatsiyalarni doimiy va o'zgartirib bo'lmaydigan tarzda qayd etishni kafolatlaydi” [21].

Ommaga hisobot berish va standartlashtirilgan ochiq reyestr. IHTT hisobotlarida va *Open Contracting Data Standard – Davlat shartnomalari haqidagi ochiq ma'lumotlar standarti* (OCDS) dasturida davlat xaridlari va infratuzilma loyihalari bo'yicha ochiq ma'lumotlar reyestrini joriy qilish korrupsiyaga qarshi samarali vosita sifatida tavsiya etilgan [22]. Ushbu reyestrda har bir loyiha uchun alohida “*loyiha kartasi*” shakllantiriladi.

Jadval

Qonun matniga taklif etiladigan moddalar

Taklif etilayotgan modda	Mazmuni
81-modda	Elektron tender va ochiq ma'lumot formati: Avtomobil yo'llari bo'yicha barcha davlat xaridlari va davlat-xususiy sheriklik loyihalari faqat elektron platforma orqali o'tkazilishi va ma'lumotlar OCDS standartida ochiq formatda e'lon qilinishini belgilaydi.
82-modda	Mustaqil audit va nazorat: Qimmatli loyihalarda tender yakunlanganidan va shartnoma bajarilgandan keyin moliyaviy va texnik audit o'tkazilishi majburiy. Natijalar 10 ish kuni ichida ochiq portalda e'lon qilinadi.
83-modda	Integritet shartnomasi va jamoatchilik monitoringi: Yirik loyihalarda tender boshlanishidan oldin davlat buyurtmachi, pudratchi va fuqarolik jamiyati ishtirokida integritet shartnomasi imzolanadi. Jamoatchilik monitorlari tender va shartnoma ijrosini kuzatadi va natijalar ochiq portalda e'lon qilinadi.
84-modda	Moliyaviy deklaratsiyalar va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish: Tender komissiyasi a'zolari va mas'ul rahbarlar har yarim yilda moliyaviy va manfaatlar deklaratsiyasini taqdim etadi; deklaratsiyalar ochiq platformada e'lon qilinadi. Komissiya a'zolari rotatsiya qilinadi, yuqori xavfli loyihalarda xorijiy sertifikatli kuzatuvchi jalb qilinadi.
85-modda	Ochiq reyestr va loyiha kartalari orqali hisobdorlik: Davlat xaridlari va yirik loyihalar bo'yicha ochiq elektron reyestr yuritiladi; har bir loyiha uchun alohida "loyiha kartasi" shakllantiriladi. Ma'lumotlar OCDS standartida taqdim etiladi.

Xulosa

Avtomobil yo'llari sohasi milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning samarali boshqarilishi davlat mablag'laridan oqilona foydalanish va jamoatchilik ishonchini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. O'rganilgan qonun loyihasida korrupsiya xavflarini kamaytirish va shaffoflikni kuchaytirishga qaratilgan umumiy normalar belgilangan bo'lsa-da, ularni amalga oshirish uchun aniq mexanizmlar yetishmaydi.

Shunday qilib, qonun loyihasiga quyidagi aniq mexanizmlarni kiritish zarur:

- majburiy elektron tender va OCDS standartida ochiq ma'lumotlar;
- mustaqil audit va natijalarni ochiq e'lon qilish;
- blokcheyn texnologiyasi orqali xarajatlar reyestri;
- xabar qiluvchilarni himoya qilish tizimi;
- jamoatchilik nazorati va *Integrity Pact* shartnomalari.

Bu choralar xalqaro tajribalarga mos bo'lib, O'zbekistonda yo'l-transport infratuzilmasi loyihalarini amalga oshirishda korrupsiya xavflarini kamaytirish, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. 309 corruption-related crimes committed by assistant governors in Uzbekistan in 2024. Available at: https://kun.uz/en/news/2025/01/20/309-corruption-related-crimes-committed-by-assistant-governors-in-uzbekistan-in-2024?utm_source
2. Cornell Law School. *23 U.S. Code § 109 – Standards*. 2025. Available at: https://www.law.cornell.edu/uscode/text/23/109?utm_source

3. The Economic Times. *NHAI tightens contract norms to curb delays, improve quality of highways*. 2025. Available at: https://economictimes.indiatimes.com/industry/transportation/roadways/nhai-tightens-contract-norms-to-curb-delays-improve-quality-of-highways/articleshow/123949038.cms?utm_source

4. Ocrxoek K. Public Procurement in the European Union: Transparent and Fair? An Evaluation of the Effectiveness of Directives 2014/23, 2014/24 and 2014/25 on Indicators of Transparency and Corruption. ERCAS Working Paper 65, June 2022. Available at: https://www.againstcorruption.eu/wp-content/uploads/2022/07/ERCAS-WP-65_2022_Koen_Public-procurement-in-the-European-Union.pdf?utm_source

5. EU Monitor. *Directive on Road Infrastructure Safety Management*. 2025. Available at: <https://www.parlementairemonitor.nl/9353000/1/j9vvij5epmj1ey0/vk0gkfd9vbwf>

6. World Bank. Public-Private Partnerships in Road Asset Management. 2022. Available at: <https://ppp.worldbank.org/>

7. Messick, R. E. (2011). *Curbing fraud, corruption, and collusion in the roads sector*. Washington, DC: World Bank. Available at: <http://documents.worldbank.org/curated/en/975181468151765134>

8. Gupta S. The effect of bid rigging on industry prices: A study of the highway construction. *Review of Industrial Organization*, 2001, vol. 19(4), pp. 451–465.

9. Lee I.K., Hahn K. Bid-rigging and potential damages. In Auctions for Korean Public Works: Contracts. *Review of Industrial Organization*, 2002, vol. 21(1), pp. 73–88.

10. Van den H.G. The parliamentary corruption and state-corporate crime: Collusion as concept between enquiry on fraud in the Dutch construction industry. *Law & Social Change*, 2006, vol. 44(2), pp. 133–151.

11. Connor J.M. Price-Fixing Overcharges (2nd ed.). West Lafayette, Indiana, Purdue University. 2009. Available at: http://www.agecon.purdue.edu/staff/connor/papers/PRICE%20FIXING_OVERCHARGES_FULL_TEXT.pdf

12. OECD. OECD Principles for Integrity in Public Procurement. Paris. 2009.

13. Transparency International Ukraine. Reform of Public Procurement in Ukraine: Jan–Jun 2017 Results. Kyiv. 2017. Available at: <https://ti-ukraine.org>

14. Kovalchuk A. Examining the Impact of E-Procurement in Ukraine. Center for Global Development. 2019. Available at: <https://www.cgdev.org>

15. OECD. Public Procurement in Chile. Paris: OECD Publ., 2017. URL: <https://www.oecd.org>

16. Lyra M.S., Damásio B., Pinheiro F.L., Fraud, corruption, and collusion in public procurement activities: A systematic literature review on data-driven methods. *Applied Network Science*, 2022, vol. 7(1), pp. 1–29. DOI: 10.1007/s41109-022-00523-6.

17. World Bank. Monitoring Road Works Contracts and Unit Costs for Enhanced Governance in Europe & Central Asia (TP-33). 2011.

18. World Bank. IFRDP Audit Report. 2019.

19. Transparency International. Integrity Pacts in Public Procurement: An Implementation Guide. 2014. Available at: https://www.transparency.org/en/publications/integrity-pacts-in-public-procurement-an-implementation-guide?utm_source

20. OECD. Government at a Glance. 2019.

21. Waqar A., Khan A.M., Othman I. Blockchain empowerment in construction supply chains: Enhancing efficiency and sustainability for an infrastructure development. *Journal of Infrastructure Intelligence and Resilience*, 2024, vol. 2(1), pp. 1–15. DOI: 10.1080/27685241.2023.2290343.

22. Transparency International. Integrity Pacts Atlas Story: India. Available at: https://www.transparency.org/ru/dynamic/integrity-pacts-atlas-story/india?utm_source

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIY JURNAL
2025-YIL 3-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2025 ГОД № 3

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2025 ISSUE 3

VOLUME 2 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.2.3.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.